

BUDDAVIYLIKNING BAQTRIYAGA KIRIB KELISHI TARIXI

Beknazarov Sobirjon Barotboy o‘g‘li.

Xalqaro Innovatsion Universitet Tarix fani o‘qituvchisi

Murodova Madina.

Xalqaro Innovatsion Universitet

Tarix fakulteti I kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada Kushon sulolasidagi davri hukmdorlarining Hindistonning egallab olishi natijasida buddaviylikning Baqtriyaga, shuningdek, butun O‘rta Osiyoga kirib kelish yo‘llari, tarmoqlari haqida so‘z yuritilgan. Buddaviylikning kirib kelishi natijasida hunarmandchilik, haykaltaroshlik, binokorlik kabi sohalarning takomillashishi yuz berganligi ta’kidlangan. Ushbu maqolada Kushon sulolasidagi tangalarda ham buddaviylik haqidagi saqlanib qolganligini ko‘rishimiz mumkin.

Аннотация. В статье рассматриваются пути и каналы проникновения буддизма в Бактрию, а также во всю Среднюю Азию в результате завоевания Индии правителями Кушанской династии. Отмечается, что внедрение буддизма привело к улучшениям в таких областях, как ремесла, скульптура и архитектура. В этой статье мы видим, что буддизм также сохранился на монетах Кушанской династии.

Annotation. The article discusses the ways and channels by which Buddhism entered Bactria and all of Central Asia as a result of the conquest of India by the rulers of the Kushan dynasty. It is emphasized that as a result of the introduction of Buddhism, such areas as crafts, sculpture, and construction improved. In this article, we can see that Buddhism was preserved on coins from the Kushan dynasty.

Kalit so‘zlar: Buddaviylik, Oks, Baqtriya, Kampirtepa, Termiz, Ayritom, Pidayev, kushon, Kanishka, Hindiston, Kujula kadfiz, Vima Kadfiz, Afg‘oniston.

Ключевые слова: буддизм, Окс, Бактрия, Кампиртепа, Терmez, Айритам, Пидаев, Кушан, Канишка, Индия, Куджула Кафиз, Вима Кафиз, Афганистан.

Keywords: Buddhism, Oxus, Bactria, Kampirtepa, Termez, Ayritam, Pidayev, Kushan, Kanishka, India, Kujula Kadfiz, Vima Kadfiz, Afghanistan.

Kushon podsholigi davrida Hindistonning bir qismi egallandi va shu bilan birga buddaviylik dini O'rta Osiyoga kirib keldi va Islom dini yoyilguncha buddaviylik mavjud bo'lgan. Binokorlik, kandakorlik, me'morchilik, savdo va hunarmandchilik kabi sohalar Kushon davlati davrida o'zining eng yuqori darajasida yuksaldi. Aynan shu davr me'morchiligidagi budda haykallari yasash an'anaga kirib qolgan. Buning tasdig'ini yurtimizning turli hududlaridan topilgan buddaviylikka oid haykaltaroshlik namunalari ko'rishimiz mumkin.

Bu sohalarning yuksalishi Kushon davlatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Buddaviylikning Baqtriyaga, undan esa, Oks suv yo'li va qisman quruqlik yo'llari orqali Marg'iyonaga kirib kelishida Buyuk hind yo'li asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qilgan¹⁰⁸. Bu haqida asosan Kampirtepa va Eski Termizdagi qazishmalarda topilgan, hind madaniyati va buddaviylik Termizning g'arbiy tomonidagi Oks vodiysidan Marg'iyyona tarafga qarab ancha erta tarqalganligi haqida guvohlik beruvchi yangi arxeologik materiallar xabar beradi. Ular orasida Eski Termiz va Kampirtepadan topilgan terrakotalar (kuydirilgan qizg'ish-jigarrang gildan yasalgan buyumlar) muhim ahamiyat kasb etadi.

Shimoliy Baqtriya hududlarida shu paytgacha Buddha tasviri tushirilgan yettita kushon davri terrakotalarini topilgan va ulardan uchtasi Eski Termizdan (stratigrafik quduqdan ikkita¹⁰⁹, Qoratepadagi buddaviylikka oid g'or monastrdan bitta)¹¹⁰, ikkitasi Kampirtepadan (bittasi chiqindi chuquridan va yana biri qo'rg'onning g'arbiy qismidagi handaqdan)¹¹¹; bittasi Ayritomdan¹¹² topilgan. Ular asosan ikkita ikonografik turga bo'linadi: abxaya-mudra holatida qo'lini ko'targan holda o'tirgan Buddha va padmasane holatida dxyana-mudra ishorasi bilan tik holda ishlangan Buddha. Ulardan faqat Kampirtepadan topilgan haykalchalar murakkab tarzda ishlangan taxt va unda savlat to'kib o'tirgan Buddha tasviri bilan keskin farq qiladi.

¹⁰⁸ Rtveladze E.V. Великий индийский путь. Из истории важнейших торговых дорог Евразии. СПб., 2012.

¹⁰⁹ Pidayev Sh.P. К вопросу о появлении образа Будды в коропластике Бактрии // IMKU. 30-nashr. 1999. 133-134-betlar.

¹¹⁰ Meshkeris V.A. Терракоты из Кара-тепе // Буддийские пещеры Кара-тепе в Старом Термезе. М., 1969. 126-136-betlar.

¹¹¹ Ilyasov J. Терракоты Кампиртепа // MTE . 1-nashr. 2000. 102-103-betlar.

¹¹² Turg'unov B.A. К изучению Айртама // Из истории античной культуры Узбекистана. Tashkent, 1973. 76-bet, 20-rasm.

Shimoliy Baqtriya hududlarida topilgan haykallar orasida Sh.R. Pidayev tomonidan Eski Termizdagi stratigrafik quduqdan topilgan, milodiy I asrning ikkinchi yarmi va II asrning birinchi yarmiga oid¹¹³ ikki haykalcha eng qadimgi Buddha haykallaridan biri sanaladi. Undan ham qadimiyroq bo'lgan Buddha haykali esa milodiy I asrning birinchi choragiga oid, Dxarmaradjika (Gandxara)dagi suburg'ondan topilgan. J.Marshalning fikricha, ushbu haykalchalar Buddaning qiyofasi muqaddaslashishidan ancha oldingi, ilk qiyofasini ifodalaydi¹¹⁴. Ayni vaqtida K.Kumarasvami va Loxvizen de Lyovlar bu borada Buddaning eng qadimgi tasviri Vima Kadfiz hukmronligidan oldin paydo bo'lishi mumkin emas, deb hisoblaydilar. Ular o'z farazlarini Kudjula Kadfiz hukmronligi davridan keyin, odamlar ko'chib kelib o'troqlashishi butunlay to'xtagan Sirkap manzilgohida Buddha tasviri tushirilgan topilma yo'qligi bilan asoslashadi¹¹⁵.

Kampirtepadan topilgan Buddha terrakota haykalchalari ham, Eski Termizdan topilgan haykalchalar bilan bir qatorda Kanishka hukmronligidan ancha oldingi davrda yasalgan¹¹⁶ bo'lib, nafaqat Baqtriyadagi, balki butun buddaviylik dunyosidagi Buddaning eng qadimiylaridan biri hisoblanadi. Ushbu dalil tarixiy jihatdan Shimoliy Baqtriyaga buddaviylikning kirib kelishi vaqtini aniqlashda juda ham muhimdir.

O'rta Osiyoning turli xil tarixiy-madaniy manzillarida buddaviylik tarixining boshlanish davri hanuzgacha bahsli bo'lib qolmoqda. Ayrim tadqiqotchilar uni buyuk Kushon shohi Kanishkaning hukmronlik davri¹¹⁷ (milodiy II asrning birinchi yarmi)ga taaalluqli, deb bilsalar, boshqalari undan ham ancha oldinroq paydo

¹¹³ Pidayev Sh.P. К вопросу о появлении образа Будды в коропластике Бактрии // IMKU. 30-nashr. 1999. 103-bet.

¹¹⁴ Marshall J. Taxila. An Illustrated Account of Archaeological Excavations carried out at Taxila under the Orders of the Government of India between the Years 1913 and 1934. Vol. 1 – 3. Cambridge, 1951. 701-bet.

¹¹⁵ Lohuizen-de Leeuw J., van. The "Scythian" Period: an approach to the history, art, epigraphy and paleography of North India from the 1 st century B.C. to the 3 rd century A.D. Leiden, 1949. 87,99,105-betlar.

¹¹⁶ Rtveldadze E.V. Великий индийский путь. Из истории важнейших торговых дорог Евразии. СПб., 2012. 203-208-betlar.

¹¹⁷ Stavskiy B. Ya. Судьбы буддизма в Средней Азии. М., 1998. 156-bet.

bo‘lgan, deya ta’kidlaydilar¹¹⁸. Shu sababdan, miloddan avvalgi III asrdayoq ushbu din tarqalgani taxmin qilingan shimoli-g‘arbiy Hindiston (Gandxar) va janubiy Afg‘oniston (Qandahor)dan shimolga qarab Baqtriya va shu hududnu shimoliy va janubiy qismlarga bo‘lib o‘tuvchi Amudaryo orqali¹¹⁹.

B. A. Litvinskiyning buddaviylikni targ‘ib qiluvchi missionerlar va ularning mahalliy tarafдорлари O‘rta Osiyoning janubida Yunon-Baqtriya davlatining oxirgi davrlarida, ya’ni milodiy II asrning birinchi yarmida¹²⁰ paydo bo‘la boshlaganligini ko‘rsatuvchi fikrlari daliliy jihatdan ishonarli hisoblanadi.

A.N. Bernshtam tomonidan G‘arbiy Pomirdagi Darshay manzilgohida aniqlangan qoyatoshlardagi kxaroshtxi yozuvlari Shimoliy Baqtriyada buddaviylik yanada oldinroq paydo bo‘lganligidan dalolat beradi. Bu yozuvlar miloddan avvalgi II asrning oxiri va I asrning boshlarida bitilgan bo‘lib, Narayana (“g‘alaba qil”) o‘qiladi¹²¹. Bu yozuv nafaqat O‘rta Osiyoda Narayyana Buddanining paydo bo‘lgani, hatto, buddaviylikning bu yerlarga Kushon podsholigi tashkil topishidan oldin yoki uning ilk davrlaridanoq kirib kelganligini bildiradi¹²².

Buddaviylikning tarqalishidan ma’lum ma’noda kushon hukmdorlari ham manfaatdor bo‘lishgan. Chunki butun sultanatda yagona dinning ustivor bo‘lishi siyosiy jihatdan ham yaxlitlikni ta’minlashda qo‘l kelishi muqarrar edi.

Hozirgi kunda Kushon davri buddaviylik yodgorliklari yaxshi o‘rganilgan bo‘lib, ular quyidagilar: Qoratepadagi g‘or-ibodatxonalar va monastirlar, Fayoztepa monastiri majmuasi, Zurmala suburg‘oni, Ayritom, Dalvarzintepa va Zartepadagi buddaviylik inshootlari. Ushbu yodgorliklarni o‘rganish nafaqat Markaziy Osiyodagi buddaviylik tarixini, balki ushbu dinning Xitoy va Uzoq Sharqda tarqalishidagi ahamiyatini ham yoritib berdi.

¹¹⁸ Litvinskiy. B.A. Среднеазиатские народы и распространение буддизма (II в. до н.э. – III в. до. н.э., письменные источники и лингвистические данные) .. История, археология и этнография Средней Азии. М., 1968. 129-bet.

¹¹⁹ Litvinskiy. B.A. Среднеазиатские народы и распространение буддизма (II в. до н.э. – III в. до. н.э., письменные источники и лингвистические данные) .. История, археология и этнография Средней Азии. М., 1968. 129-bet.

¹²⁰ O’sha manbada.

¹²¹ Harmatta J. The Oldest Kharosthi Inscription in Inner Asia // AOASH. T. 19. Fasc. 1. 1966. 1 – 12- betlar.

¹²² Litvinskiy. B.A. Среднеазиатские народы и распространение буддизма (II в. до н.э. – III в. до. н.э., письменные источники и лингвистические данные) .. История, археология и этнография Средней Азии. М., 1968. 130-bet.

Baqtriyada buddaviylik dini va buddaviylik madaniyatining gullab-yashnashi Buyuk Kushonlar hukmronligi davriga, ya'ni milodiy I-III asrlarga to'g'ri keladi. Baqtriya aholisininig buddaviylik bilan ilk tanishuvi miloddan avvalgi I asrdan oldinroq sodir bo'lgan va kushonlar davlati tashkil topgan vaqtga kelib, bu yerda Hindistondan kelgan buddaviy missionerlardan iborat juda katta koloniylar allaqachon tashkil topib ulgurgan.

O'zbekistonda buddaviylik va buddaviylar badiiy madaniyatini o'rganish 1932-yilda, Termizdan 7 km balandlikda joylashgan Ayrитom yaqinidan, Amudaryoning tubidan akan (ayiqtovon) barglari orasida arfa, nog'ora va ud chalayotgan uchta figuralarning belgacha qismi tasvirlangan tosh relyef topilgandan keyin boshlandi ushbu frizning topilishi, O'zbekistonda buddaviylik va buddaviylar badiiy madaniyatini o'rganishni boshlab berdi. Bugungi kunda buddaviy inshootlar Boxtarning ko'p joylarida aniqlangan. Ularning eng mahobatlilari Boxtar va Termiz shahrida joylashgan. Boxtar shahridagi Tepa Rustam suvargasi, Sharqi Falak va Naubahor ibodatxonalari kushon davriga oid sanaladi. Termiz shahari kushoniylar davrida budda dini va badiiy madaniyatining markaziga aylangan¹²³.

Xulosa qilib aytganda, mintaqaning aksar qismida zardushtiylik o'z mavqeyini asosan saqlab qolgan. Ammo kushoniylarning Hindistonning kattagina qismini bo'ysundirishi, Kanishka hukmronligi yillari sultanat markazining Sug'diyonadan Peshovarga ko'chirilishi bilan budparastlik dini o'lkamiz ahli orasida ham tarqala boshlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rtveladze E.V. Великий индийский путь. Из истории важнейших торговых дорог Евразии. СПб., 2012.
2. Pidayev Sh.P. К вопросу о появлении образа Будды в коропластике Бактрии // IMKU. 30-nashr. 1999.
3. Meshkeris V.A. Терракоты из Кара-тепе // Буддийские пещеры Кара-тепе в Старом Термезе. М., 1969.
4. Ilyasov J. Терракоты Кампиртепе // MTE . 1-nashr. 2000.

¹²³ Zamonov A. O'zbekiston tarixi. 1-qism. – T: Bayoz. 392-bet.

5. Turg'unov B.A. К изучении Айртама // Из истории античной культуры Узбекистана. Tashkent, 1973.
6. Marshall J. Taxila. An Illustrated Account of Archayeological Excavations carried out at Taxila under the Orders of the Government of India betweyen the Years 1913 and 1934. Vol. 1 – 3. Cambridge, 1951.
7. Lohuizen-de Leeuw J., van. The “Scythian” Period: an approach to the history, art, epigraphy and paleography of North India from the 1 st century B.C. to the 3 rd century A.D. Leiden, 1949.
8. Stavskiy B. Ya. Судьбы буддизма в Средней Азии. М., 1998. 156-bet.
9. Litvinskiy. B.A. Среднеазиатские народы и распространение буддизма (II в. до н.э. – III в. до. н.э., письменные источники и лингвистические данние) .. История, археология и этнография Средней Азии. М., 1968.
10. S.Beknazarov, H. Doniyorova. Turkiy xalqlar va Kushon davlatining qadimgi davlatchilik rivojida tutgan o'rni "Qashqadaryo vohasining Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi ravnaqiga qo'shgan hissasi". - Qarshi, 2025. 618 bet.
11. Beknazarov S, Qayumova M., "Kushon davlatida taxt vorisligi tartibi va Kushon podsholigi solnomasi". "Qashqadaryo vohasining Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi ravnaqiga qo'shgan hissasi". - Qarshi, 2025. 618 bet.